

and duration that are not challenging to comprehend ideas [3;5]. Simultaneously, users can broaden their horizon by virtue of reading and listening different people's ideas and beliefs. Daily usage of these applications can bring learners unlimited benefits with regard to language learning as mentioned above.

As the scholars said that "The application of computer technologies in language instruction provides a student-centred learning environment. It enables course administrators and teachers to vary lesson presentation styles to motivate students of varying interests, provides learning opportunities outside the classroom (hence increasing learner interaction with the language), and is perceived to cater more for individual differences" [4;2]. In accordance with this, learners can use technological devices not only in the classroom, but also outside where they want. It will be more worthwhile if teachers instruct how to use technological devices specifically, the usage of educational sites, applications, video, and audio materials. Facilitation creates valuable opportunities for individuals who are fond of utilizing gadgets. As it is commonly known, technology covers all like for instance, entertaining, educating, and informing purposes that are crucial aspects of life.

Another application that is helpful in the process of language learning is Google Classroom that is referred as one of the key apps to manage teachers own classrooms. It caters online education by virtue of downloading, uploading, sending and checking materials and tasks that are given by the teachers. "Google Classroom is absolutely considered as one of the best platforms out there for improving teachers work flow because it provides a set of so many useful and effective features that make it an ideal application to be used by the teachers. The benefit of using google classroom is the teachers can be able to manage and create or even collect the assignment from the students that has been given by the teachers before. Also, the teachers can be able to spend more time for the student and less time on the

paperwork" [5;109]. As it can be clear from those ideas above, Google Classroom app serves as a handy tool to connect both teachers and learners. Educators can upload tasks and give instructions how to execute them and learners can easily download these files.

Nowadays, one of the foremost platforms for people who are gratified by online education is Zoom that is devoted to organize live videos, webinars, conferences, chatting and other purposes. Mostly, this program made great contribution during the period of coronavirus pandemic since most professors exploited it to conduct lessons straightforwardly and successfully. Admittedly, abundant benefits have been noticed when applying it as face-to-face meetings with any people from everywhere from the world. Some researchers said that the features of it are systematically arranged, easy to utilize, practical and finding is uncomplicated. It provides with qualitative video, sound production and presentation that can be used in the process of teaching. It is crucial to say that educators can schedule the time of the meeting by schedule settings. In addition to this, teacher can inform the topic of learning, time and duration for the attendances of the meeting. The most advantageous of side of this program is recording feature in order to save videos without troubles. Due to many merits above, this application gained amazing popularity among youngsters who really adore to use online educational tools.

To sum up, applying technological devices inside and outside of the classroom brings numerous superiorities for both facilitators and learners. In order to educate people to learn foreign languages the role of online teaching tools is vital. Apparently, with the development of technology teachers relish to conduct lessons by means of online platforms such as YouTube, Google Classroom, and Zoom. These applications that are mentioned above serve as engaging and thrilling tools to acquire knowledge about foreign languages to improve language skills without challenges.

References

1. Dr.Salih USUN Assistant Professor Department of Educational Sciences Canakkale Onsekiz Mart University. Advantages of Computer Based Educational Technologies for Adult Learners. The Turkish Online Journal of Educational Technology – TOJET October 2003 ISSN: 1303-6521 volume 2 Issue 4 Article 1. p.4.
2. Megan Taylor, Anthea Fudge, Negin Mirriahi and Maarten de Laat. Use of digital technology in education: Literature review. Prepared for the South Australian Department for Education on behalf of The Centre for Change and Complexity in Learning, The University of South Australia. 2021. p.4
3. Rauzatul Munawarah Thesis. Using BBC Podcast in improving students' listening skills. Students of Fakultas Tarbiyah dan Keguruan Department of English Language Education. Fakultas Tarbiyah Dan Keguruan Uiversitas Islam Negeri Ar-Raniry Banda Aceh 2022 M/1443 H. p. 5.
4. Rahma Al-Mahrooqi and Salah Troudi. Using Technology in Foreign Language Teaching. Cambridge Scholars Publishing. 12 Back Chapman Street, Newcastle upon Tyne, NE6 2XX, UK British Library Cataloguing in Publication Data. A catalogue record for this book is available from the British Library. Copyright © 2014. p.2.
5. Rizky Andra Prayudi, Achmad Karunia Hakiki, Nanda Rezki Dermawan Putra, Tio Ocatviano Anzka, Muhammad Taufik Ihsan. Department of English Education, Faculty of Education and Teacher Training State Islamic University of Sultan Syarif Kasim Riau, Indonesia. ETDC Indonesia. JRIIP: Jurnal Riset dan Inovasi Pembelajaran ISSN 2776-8872 Copyright © 2021 The Author (s). Vol. 1 No. 2, Agustus 2021, hal. 102 – 111. p.109

REZYUME. Ushbu maqola til ko'nikmalarini yaxshilash va hamkorlikda o'rganish muhitini yaratish orqali muvaffaqiyatli darslarni o'tkazish uchun texnologiya platformalaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.

РЕЗЮМЕ. В этой статье подчеркивается важность использования технологических платформ для улучшения языковых навыков и успешного проведения уроков путем создания среды совместного обучения.

SUMMARY. This article highlights the significance of using technological platforms to enhance language skills and conduct lessons successfully by creating collaborative learning environment.

MILLIY SPORT TURLARIGA OID ATAMALAR POLISEMIYASI

M.X.Babayarov – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: milliy sport, lingvokulturologik xususiyat, atamalar, ko'p ma'nolilik, lingvistik tahlil.

Ключевые слова: национальный вид спорта, лингвокультурные особенности, термины, неоднозначность, лингвистический анализ.


Key words: national sport, linguistic and cultural characteristics, terms, ambiguity, linguistic analysis.

Terminologiya bu ma'lum til sohasiga doir til atamalar sanalib, uni hayotimizda mavjud ixtisosliklarning bar-chasida uchratishimiz mumkin. Sport terminologiyasi ham aynan sport sohasini qamrab olgan shakl sifatida yuzaga kelgan. Sport terminologiyasi keng va xilma-xil lug'atlardan tashkil topgan bo'lib, texnik atamalar,

so'zlashuv so'zlari va madaniyatga xos iboralarni o'z ichiga oladi. Sport terminologiyasi bevosita norasmiy so'zlashuv uslubini ham aks ettirishi mumkin, bunda sport, ko'pincha, jamiyatda tushuniladigan, ammo tashqarida keng tan olinmaydigan jargon va norasmiy iboralardan foydalanadi. Jumladan, Amerika futbolida qo'llanadigan "touchdown"


termini ballar bilan yakunlangan muvaffaqiyatli o'yin sifatida e'tirof etiladi [1]. Golf o'yinidagi "hole-in-one" ifodasi birinchi urinishda to'g'ridan to'g'ri teshikka tushadigan zarbaga nisbatan ishlatiladi [2]. Sportga oid terminlar mintaqaviy o'zgarishlarni ham qamrab oladi. Sport terminologiyasi, ko'pincha, mahalliy dialektlarni va madaniy ta'sirlarni aks ettiruvchi mintaqaviy farqlarga egaligi ham unda yaqqol namoyon bo'lgan.

Bundan tashqari, sportga xos atamalarini qamrab oladigan auditoriyasiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:



Muxlislar va tomoshabinlar uchun mo'ljallangan sport terminologiyasi norasmiy sharoitlarda, yangiliklarni yoritishda va muxlislar orasida ishlatiladi. O'yinchilar va murabbiylar tomonidan esa mashg'ulotlarda, strategiya muhokamalarida va o'yinlarda ishlatiladigan texnik atamalar ham alohida guruhni tashkil etadi. Tahlilchilar va sharhlovchilarga sportga oid leksik birliklar eshittirish, yozma tahlil va ekspert muhokamalarida ishlatiladigan atamalar sifatida namoyon bo'ladi.

Sport atamalarining rivojlanish evolyutsiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, buning uchun asosiy ikki omil mavjudligiga guvoh bo'lamiz:



Yangi sport va texnologiyalar turlarining paydo bo'lishi bilan hamohang ravishda yangi terminologiya doimo yaratiladi va til talqiniga doimo moslashtiriladi. Onlayn platformalar va ijtimoiy media yangi sport atamalarini shakllantirish va ommalashtirishda muhim rol o'ynadi. Sport terminologiyasi doimiy o'zgarib turuvchi soha bo'lib, u sportning o'ziga xos murakkabliklarini, uning madaniy ta'sirini va rivojlanayotgan tabiatini namoyon etadi. Sport atamalarini tushunish o'yinlarga mos madaniy jihatlarni qadrlash, sport jamoatchiligi bilan muloqot qilish va sportni o'rab turgan boy madaniy qatlamni yuzaga chiqarish uchun kalit hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, sport terminlari qamroviga ko'ra ikki yirik guruhga ajratish mumkin [5]:

1. **Umumiy sport terminologiyasi** – barcha uchun tushunarli hisoblangan terminlar majmuyi.

2. **Xususiy sport terminologiyasi (milliy sport o'yinlari talqinida)** – ayrim xalqlar sportiga xos atamalar jamlanmasi.

Barchamizga ma'lumki, har bir xalqlarning milliy sport turlari mavjud bo'lib, ushbu sport turida qo'llanuvchi terminlar ham ayni shu millatning lingvokulturologik jihatiga ko'ra namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, milliy sport turlarida uchraydigan terminlarda polisemiya hodisasi ham uchray turadi. Bizning ushbu maqolamizda ham aynan ulardagi mavjud ko'p ma'nolilik hamda uning lingvistik xususiyatiga oid mulohazalar tahlilga tortilgan. Milliy sport turlariga oid atamalarining ko'p ma'noliligi til, madaniyat va o'ziga xoslik o'rtasidagi o'zaro murakkab ta'sirni aks ettiradi. Shu o'rinda ko'p

ma'nolilik nima, uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat kabi savollarga javob berishimiz maqsadga muvofiqdir. Ko'p ma'nolilik har bir tilda mavjud lisoniy hodisa sanalib, uning lingvistik nuqtayi nazardan o'rganilishi qadim davrlarga borib taqaladi. Falsafiy yo'nalish asosida shakllangan yunon-rim tilshunosligining asosiy tadqiqotlari ham aynan shu mavzu doirasida edi. O'zbek tilshunosligida ham Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ham turkiy tilda uchraydigan mavjud ko'p ma'noli so'zlar o'rin olgan. Keyingi davrlardan boshlab polisemiya hodisasining o'rganilishi turli jihatlariga ko'ra yanada rivojlandi.


Polisemiya hodisasi har bir xalqqa tegishli bo'lganligi sababli unda milliylik hamohang holda shakllanadi. Ba'zi tillardagi ko'p ma'nolilik hodisasi boshqa til doirasida amal qilmasligi mumkin. Bu ko'p ma'noli so'zlarda xususiylik mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Milliy sport o'yinlarida ko'p ma'nolilikning mavjud bo'lishi undagi metoforik xususiyatning ham mavjud bo'lishidan dalolat beradi. Bu milliy sport atamalarining ko'p ma'noliligini boshqaradigan eng ko'zga ko'ringan mexanizm sanaladi. Metaforik kengaytma ma'lum bir soha (sport) bilan bog'liq so'z yoki ibora boshqa sohaga (milliy o'ziga xoslik, madaniyat va boshqalar) qo'llanilganda yuzaga keladi. Misol uchun, "**milliy sport**" terminini oladigan bo'lsak, milliy madaniyatga chuqur singib ketgan, hatto rasman belgilanmagan sport turiga nisbatan qo'llanuvchi ushbu termin xalqlarga oid ayrim sport turlarini belgilashda foydalaniladi. Yoki bo'lmasa, ko'p ma'nolilik asosida yuzaga keluvchi vositalardan biri sanalmish metonimiya hodisasi ham milliy sport terminlari orasida yaqqol yuzaga kelganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, "**milliy jamoa**" atamasi metonimik jihatdan butun xalqni, uning qadriyatlarini va intilishlarini ifodalashi mumkin:

To'g'ridan-to'g'ri ma'nosi	<i>Sportda umumiy maqsad sari birgalikda harakat qiladigan shaxslar guruhi</i>
Metaforik ma'no	<i>"Jamoat loyihasi" yoki "tibbiy jamoa" kabi hamkorlikda ishlaydigan har qanday odamlar guruhi</i>
Ramziy ma'no	<i>Birlik, hamkorlik va umumiy maqsad</i>

Sport terminlari orasidagi ko'p ma'nolilik vujudga kelishidagi yana bir omil semantik maydonlar va semantik tarmoqlarga asoslanadi. Jumladan, "sport atamalari", "milliy o'ziga xoslik atamalari" va "madaniy atamalar" kabi ma'no bilan bog'liq so'z guruhlarini bir semantik maydon sifatida oladigan bo'lsak, ko'p ma'nolilik turli semantik sohadagi so'zlar bir-biriga o'xshab, yangi ma'no hosil qilganda yuzaga keladi. Milliy sport atamalarining ma'nolari millatning madaniy kelib chiqishi va tarixiy tajribasiga ham asoslanishi mumkin, misol uchun, Hindistondagi "kriket" milliy o'yini milliy g'urur va an'analarni ifodalovchi sport sifatidagi to'g'ridan-to'g'ri madaniy ahamiyatga ega o'yin sifatida barchaga ma'lum.

Milliy sport o'yinlaridagi ko'p ma'nolilikning hosil bo'lishi ma'lum lingvistik jarayonlarni "boshdan kechirgach" yuzaga keladi. Buni bevosita ikki guruh asosida shakllantirish mumkin:



Leksiklashuv hodisasi majoziy ma'no tilga shu qadar chuqur kirib borib, so'zning alohida ma'nosiga aylansa, yaqqol vujudga keladi Misol uchun, "o'yin" so'zi misoli asosidagi tahlilni ko'rib chiqsak. Wikipedia onlayn lug'atida ushbu birlik ta'rifi quyidagicha:

“O‘yin — tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O‘yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san‘at, ayniqsa, uning ijro shakllari bilan qo‘shilib kelgan.

Ma‘lumki, inson o‘z hayotida o‘yin, o‘qish, mehnat, dam olish kabi mashg‘ulotlar bilan band bo‘ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o‘yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o‘qish bilan baravar davom etadi, undan so‘ng esa o‘yin kamayib, uning o‘rnini o‘qish va mehnat egallaydi. Odamlar tarixining dastlabki davrlarida o‘yinlar hayotda muhim o‘rin tutgan. O‘yinlar yordamida insoniyat o‘sgan, ulg‘aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo‘lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma‘naviy kamol topgan [7].”

Keltirilgan ta‘rifga e‘tibor beradigan bo‘lsak, o‘yin leksikasining vujudga kelishi, avvalo, tarixga borib taqaladi: diniy marosim, harbiy mashq, san‘at va shu kabi sohalar yuzaga keladigan harakatlar majmui sifatida anglashiladigan ushbu termin vaqtlar o‘tishi bilan o‘z mazmunini o‘zgartirgan. Endi “o‘yin” kengroq ma‘noni o‘z ichiga oladi, strategik elementlarga ega har qanday faoliyatni nazarda tutadi. Uni quyidagi lingvistik tahlil asosida ko‘rib chiqishimiz ayni muddao:

So‘zma-so‘z ma‘nosi	<i>Raqobat va qoidalarini o‘z ichiga olgan tuzilgan faoliyat</i>
Metaforik ma‘no	<i>Har qanday faoliyat yoki strategiya, raqobat yoki xavf bilan bog‘liq vaziyat</i>
Majoziy ma‘no	<i>Ko‘pincha “hayot o‘yini” kabi hayotdagi qiyinchiliklar va g‘alabalarni tasvirlash uchun ishlatiladi</i>

Semantik o‘zgarish ham so‘zlarning vaqtlar o‘tishi bilan yuzaga keladigan ma‘nosiga bog‘liq hisoblanadi. So‘zlarning ma‘nolari vaqt o‘tishi bilan rivojlanadi va milliy sport atamalar ham bundan mustasno emas. “Chempionat” dastlab chempion uchun musobaqani nazarda tutgan bo‘lsa, endi u “champion” so‘zining kengroq ma‘nosini o‘zgartirishni aks ettiruvchi har qanday mukammallikka intilishni tasvirlashi mumkin. Bu sport leksikasida ko‘p ma‘nolilik hosil bo‘lishiga oid hodisaning vaqt bilan aloqadorligini aks ettiradi:


So‘zma-so‘z ma‘nosi	<i>Eng yaxshi jamoa yoki shaxsni aniqlay-digan musobaqa yoki o‘yinlar seriyasi</i>
Metaforik ma‘no	<i>Har qanday sohada mukammallikka intilish</i>
Majoziy ma‘no	<i>Oliy maqsad, g‘alaba va ulug‘likka intilish</i>

Milliy sport o‘yinlari atamalariga xos ko‘p ma‘nolilikni aniqlash va ularni boshqa millat sport o‘yinlariga qiyoslash til madaniy qatlamining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. U milliy g‘urur, birlik va qadriyatlarini ifodalash uchun umumiy lug‘atni taqdim eta oladigan vosita sifatida yuzaga keladi. Milliy sport turlariga oid atamalarining ko‘p ma‘noliligi til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradi. Bu atamalar o‘zlarining so‘zma-so‘z ta‘riflaridan ustun bo‘lib, milliy o‘zlikni shakllantiruvchi, madaniy muloqotni rivojlantiruvchi va tilning o‘ziga xos rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi kuchli ramzlarga aylanadi. Lingvistik tahlil ushbu hodisani va uning jamiyatga chuqur ta‘sirini tushunish uchun asos yaratadi.

O‘zbek milliy sport o‘yinlarida ham ko‘p ma‘nolilik hodisasi tez-tez uchrab turuvchi lingvistik xususiyatlardan biri sanaladi [5]. Xususan, milliylikimizni aks ettiruvchi kurash sport turida o‘ziga xos terminlar mavjud bo‘lib, ularning polisemantik xususiyatlarini quyida tahlil qilamiz:

Adabiyotlar

1. Lexical means in the speech of sports commentators in the USA and Russia 2018 / L.E.Pak.
2. Nominal non-terminological vocabulary of sports 2009. Elistratov A.A.
3. Borrowed sports terms and their use in journalism 2020 / Ayakulov N.A.
4. Codification of special anthroponymic units in the sublanguage of sports 2015 / Bobyrevva Natalya Nikolaevna



Yuqorida nomlari qayd etilgan terminlardan ayrimlari ko‘p ma‘nolilik xususiyatini o‘zida gavdalantiradi. Raqib yelkasining qisman yerga tegishi ushbu sport turida “chala” termini bilan yuritilib, ushbu so‘zga Wikipedia onlayn lug‘atida quyidagicha ta‘rif beriladi: “CHALA ‘maromiga yetmagan, ‘oxiriga yetkazilmagan’, ‘pala-partish amalga oshirilgan’. ‘Bola, bolaning ishi chala Bu sifat eski o‘zbek tilida chal- fe‘lining ‘biror ishni naridan beri, maromiga yetkazmay bajarmoq ma‘nosidan (O‘TIL, II, 352) -a qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik a unililari ä unililariga almashgan: chal- + a = chala > chälä”. Demak, oxiriga yetkazilmagan ishga nisbatan qo‘llangan chala termini ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular kurashdagi chala termini bilan bevosita polisemantik aloqa hosil qiladi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

1. Chala ish.
2. Chala tug‘ilmoq [7].

Yuqoridagi birliklarga ko‘ra ishning yakuniga yetkazilmagan qismi va farzandning to‘kis holatda emas, balki chala, majruh bo‘lib tug‘ilishiga nisbatan foydalanilgan chala so‘zi kurashda yiqitishda to‘liq emas, balki chala holatni nazarda tutgan holda polisemantikani shakllantirgan.

Halol termini ham milliy kurash sportiga xos terminlaridan biri sanalib, “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” unga quyidagicha ta‘rif keltirilgan: “O‘zbek kurashida sof g‘alabaga beriladigan baho”. Demak, sportga oid atama tarzida qo‘llangan ushbu so‘z ham ko‘p ma‘nolilik hosil qila oladi. Buni Wikipedia lug‘atida keltirilgan izoh asosida ko‘rib chiqamiz:

“1. ko‘chma Kishining o‘ziga qarashli, o‘z mehnati bilan, peshona teri to‘kib topilgan; xiyonat, g‘irromlik kabilardan xoli. Jondilidan halol ishlaydigan odamlar bilan inoq. R. Fayziy, „Cho‘lga bahor keldi.“ To‘g‘ri tut ishingni va halol yasha! Shuhrat, Mahfuza endi qing‘irlikni tashlar, bolalarini halol pul bilan boqib, voyaga yetkazar. Gazetadan.

2. ko‘chma G‘irromlikka o‘rganmagan, qing‘ir yo‘lga bormaydigan, birovni aldamaydigan; to‘g‘ri, sofdil. Halol kishi. Halol ishlamoq. Kolxoz raisi umri yetimlik bilan o‘tgan halol odam. Sh.Rashidov, „Bo‘rondan kuchli“. Bechora Oqila o‘zi juda halol, mehnatkash, bolalarga juda mehribon ayol. A.Qahhor, „Og‘riq tishlar.“ Azaliy xalqing bor bir el qatori, Tantiyu mehnatkash, to‘g‘riso‘z, halol. A.Oripov, „Yillar armoni“ [7].

Demak, halol so‘zining ko‘chma ma‘nosi orqali unda ko‘p ma‘nolilik hosil bo‘lgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy sport turlariga oid atamalarining ko‘p ma‘noliligini tushunish ularning jamiyat hayotiga ko‘p qirrali ta‘sirini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu atamalar milliy qadriyatlar, o‘ziga xoslik va umumiy tajribani ifodalash uchun ularning tom ma‘nodagi ta‘riflaridan oshib, sportning chuqur madaniy ta‘sirini ta‘kidlaydi.

5. Stratification model of the language of sports communication 2018. / Minina Ekaterina Ivanovna
6. Terminology in English-language sports discourse (using the example of winter sports terminology) 2020. / Tsybina Larisa Viktorovna, Koshelkina Ekaterina Aleksandrovna, Izosimova Valeria Olegovna
7. www.wikipedia.uz
8. www.google.com

REZYUME. Ushbu maqolada milliy sport turlarida qo'llanuvchi terminlar hamda ularda sodir bo'ladigan polisemiya hodisasi xususida so'z yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, milliy sport turlarida mavjud so'zlardagi ko'p ma'nolilik jihati har bir millatning lingvokulturologik xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Atamalarda polisemiya hodisasini aniqlashda xalqlarning milliy madaniyati, milliy sport o'yinlari va unga oid terminlarga o'yinlik kiritish hamda ularni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

РЕЗЮМЕ. В данной статье говорится о терминах, используемых в национальных видах спорта, и возникающем в них явлении многозначности. Следует отметить, что неоднозначность слов в национальных видах спорта определяется исходя из языковых и культурных особенностей каждого народа. При определении явления полисемии в терминах целесообразно уточнить национальную культуру народов, национальные спортивные игры и связанные с ними термины и проанализировать их с лингвистической точки зрения.

SUMMARY. This article talks about the terms used in national sports and the phenomenon of polysemy that occurs in them. It should be noted that the ambiguous aspect of words in national sports is determined based on the linguistic and cultural characteristics of each nation. In determining the phenomenon of polysemy in terms, it is appropriate to clarify the national culture of nations, national sports games and related terms and analyze them from a linguistic world view.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI CHUQUR O'ZLASHTIRILISHGA

OO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

G.B.Babasheva – *pedagoqika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tavanch so'zlar: o'qish texnikasi, fikrni vozma shaklda bayon etish, mustaqil fikr vuritsish, o'z fikriga ega bo'lish.

Ключевые слова: техника чтения, выражение мнения в письменной форме, самостоятельное мышление, наличие собственного мнения.

Key words: reading technique, expression of opinion in written form, independent thinking, having one's own opinion.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim boshqichida yangi tahrirdagi DTSlari asosida o'quvchilarni ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar standart me'zon orqali aks ettiriladi:

- O'qish texnikasi
- O'zgalari fikrini va matn mazmunini anglash
- Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'quvchilar asosan shu parametrlar asosida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqib 1-4-sinf ona tili fanini o'qitishda bir qator vazifalar qo'yiladi:

- O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
- O'z fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish;
- Bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalanish;
- Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi:

- Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- Bolalarga atrof-muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- Nafosat hissini tarbiyalash;
- Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish;
- O'quv mashg'ulotlariga, bilim manbayi bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish.

Hozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki, o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki, hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p

vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1-sinf boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi. 1-sinfda «Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring», «Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing», «Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing» kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, 88-mashqda „O'lkamda bahor“ mavzusida sujetli rasm berilgan. O'quvchilar rasmni kuzatib, narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir o'quvchi 5 ta, ikkinchi o'quvchi 10 ta va hokazo so'z yozishi mumkin. Aslida rasmda 30 tadan ortiq narsa tasvirlangan: tog', osmon, bulut, qor, terak, tol, o'rik, ko'ylak, shim, tufli, mayka, lenta, soch, bosh, qir, dala, o't, gul, qo'l, oyoq, quloq, ko'z, burun, yuz, og'iz, barmoq, bo'yin, qorin, yubka, jemper, daraxt va hokazo. Bu o'quvchilarni kuzatuvchanlikka o'rgatadi.

O'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi. Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin. Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otinshi fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi. Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirish lozim.

Darsga qo'yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o'rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'ladi:

Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o'quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir. Darsda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til inaterialining g'oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo'lishiga, tilni o'rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida